

PEDAGOG FAOLIYATI VA UNING BOLA RIVOJLANISHIDAGI O'RNI
ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ЕЕ РОЛЬ В РАЗВИТИИ РЕБЕНКА
PEDAGOGICAL ACTIVITY AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT
OF THE CHILD

Esemuratova Gulbanu Sultanbek qizi
Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Amaliy Psixologiya 4-kurs talabasi
esemuratovagulbanu@gmail.com
+998934861835

Turdimuratova Sofiya Baxtiyar qizi
Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Amaliy Psixologiya 2-kurs talabasi
sofyaturdimuratova@gmail.com
+998979689699

Esbosinova Sarbinaz Muratbaevna
Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Amaliy Psixologiya 2-kurs talabasi
sarbinazesbosinova@gmail.com
+998937079963

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog faoliyati va uning xususiyatlari, pedagoglar faoliyatiga buyuk allomalarimizning qarashlari, pedagogning bola rivojlanishidagi orni haqida malumotlar keltirildi.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о работе педагога и ее характеристиках, взгляды наших великих ученых на работу педагогов, роль педагога в развитии ребенка.

Annotation: In this article, information was given about the work of a pedagogue and its characteristics, the views of our great scientists on the work of pedagogues, the role of a pedagogue in child development.

Kalit so'zlar: pedagog, ustoz, oqituvchi, pedagogik faoliyat, oquvchi, tafakkur, iroda, diqqat, intellekt, motivaciya, emociya, individ, individual.

Key words: pedagogue, teacher, pedagogical activity, student, thinking, will, attention, intellect, motivation, emotion, individual, individual.

Ключевые слова: педагог, учитель, педагогическая деятельность, ученик, мышление, воля, внимание, интеллект, мотивация, эмоция, личность, личность.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishida jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi. O'qituvchining o'rni va uning vazifalari o'sib

kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaralishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi bilan belgilanadi.

"...*O'qituvchi* – deydi **Al Forobiy**, - *aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur*". U o'z fikrini davom ettirib: "*O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroylik nutqqa ega bo'lishi, o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalab berishni bilmog'i lozim. Shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi*", deb ta'kidlaydi.

Pedagog faoliyatidagi ijtimoiy-madaniy malakani yetkazish bu *tushuntirish, ko'rsatish (illyustratsiya), darslik mashqlarini tahsil oluvchilar bilan birga ishlash, tahsil oluvchini bevosita amaliyoti (laboratoriya, amaldagi) va treningdan iborat*. Pedagogik faoliyatning mahsuli bo'lib o'quvchining aksiologik, emotsional-mazmuniy, predmetli, baholash mezonlarini aks ettiruvchi individual malakasining shakllanganligi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning natijasi asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda o'quvchilarning shaxsiy, intellektual rivojlanishi, ularni o'quv faoliyatining sub'ekti va shaxs sifatida shakllanishi hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivatsiya hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda ham o'quv faoliyatdagi kabi motivatsion soha ajratilib ko'rsatiladi. Bu tashqi va ichki motivlardir. Tashqi motiv sifatida biror bir narsaga erishish istagini, ichki motiv sifatida esa o'z faoliyatining jarayoni va natijasiga e'tibor berishni misol qilish mumkin. Masalan pedagog bu kasbga yoahligidan qiziqib, yoki yaqinlar, oila a'zolari orasidagi pedagogga havas qilib ushbu kasbni egallashi uning ichgi motivaciyasi boladi. Bu esa kelajakda erishiladigan katta yutuqlarning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Lekin agar u bu kasbga keyinchalik boshqa maqsad bilan qiziqib tanlagan bo'lsa (masalan oylik moash uchun, yoki obro-e'tibor uchun) bu tashqi motivaciya ishtiroki bo'ladi. Albatta tashqi motivaciya bilan keyinchalik rivojlaniah ho'lmaydi deb ayta olmaymiz. Va yana bu tashqi motivaciya keyinchalik ichki motivaciyaga aylanishi ham mumkun.

Pedagogik faoliyat pedagogik vaziyatdagi turli tuman xatti-harakatlarning umumlashmasidan iborat: pertseptiv, mnemik, kommunikativ, izlanuvchanlik, nazorat qilish, baholash va h.k. Ushbu turli-tuman faoliyatlarning jamlanmasi bir qancha psixologo-pedagogik funktsiyalarni belgilab beradi.

O'qituvchiga nisbatan o'smirlarning talab va umidlari chet el psixologlari tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, **A.Djersildning** izlanishlariga binoan bolalar quyida qayd qilingan xarakterga ega bo'lgan o'qituvchilarni afzal hisoblar ekanlar:

1) *mehribon, quvnoq, javobgarlikni his qiluvchi, barqaror insoniy sifatli;*

2) *haqiqatgo'y, batartib, halol, boshqalarni hurmatlovchi, tashkilotchilik sifatidagi;*

3) *boshqalar manfaatini o'ylaydigan, xalqparvar, sinf ishlarida o'quvchilarga erkinlik xuquqini beruvchi, qiziquvchan, ishtiyoqli va ishchan;*

4) *Yoqimli ovozli, umumiy yoqimtoylik qiyofasidagi o'qituvchi.*

O'qituvchi yuqorida ko'rsatilgan hislatlardan yana boshqa kopgina sifatlarni ham egallashi zarur. Chunki har bir o'quvchi individualdir. Ularga barchasiga bir hil munosabat korsatib bolmaydi. Har bir o'quvchining qobilati bo'ladi. Psixologiyadan biz ma'lumki qobilyatsiz inson bo'lishi mumkin emas. Oquvchining keyinchalik buyuk bir shaxs bolish be vosita ustozga bog'liq.

Yoshligimizni esalasak sinfda tezroq, chaqqonroq va chiroyli yoza oladigan oquvchi eng yaxshi, a'lochi oquvchi sifatida e'tirof etilishini esalymiz. Lekun bu degani tez yoza olmaydigan yoki xunuk yozadigan oquvchini qabilyatsizligini anglatmaydi. Bu oquvchi individual tarzda shunchaki tez yoza olmaydigan yoki xunuk yozadigan oquvchi. Oqituvchi bu oquvchidagi asosiy qobliyatni yuqoridagi kamchilik bilan yopib tashlamasligi kerak aksincha balku bu oquvchida boshqa sohada juda katta salohiyati borligini inobatga olishi kerak. Pedagog oquvchilarning nafaqat taffakuri rivojlanishiga va yana diqqat, eslab qoliah, iroda kabi sifatlari rivojlanishini kuzatib borish orqali undagi yangi qobiliyatni ochishi mumkun.

Muhim Davlat vazifasini – kadrlar tayyorlash Milliy Dasturini amalga oshirayotgan zamonaviy maktab o'qituvchisining hislatlari, uning ijodiy faoliyati kirib kelayotgan XXI asrda shakllanib, asosan amaliy ishda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o'sib-rivojlana boradi. Shu bilan birga o'qituvchi doimiy ravishda o'z malakasini oshirib, o'z ishining muvaffaqiyatini yuqori darajada ta'minlashga yordam beradigan shaxsiy hislatlarini tarbiyalab borishi zarur.

Shayx Najmiddin Kubro *«Ey mo'min, haqiqiy komillik yuzaga kelgunga qadar bir g'ayrat va hikmat bilan sayri suluk qilish lozim. Bu yo'l parishonlik, yalqovlik va tanballikni ko'tarmaydi, zohir, birlik va butunlikni talab qiladi. Soyirlarga yaxshilab qara, parishon va sustlashganlar yo'lda ilgarilay olmaydilar. Bu yo'l muhabbat ahlidan g'ayratli, yelib yuguruvchi va uzluksiz harakatda bo'lganlarning ravishidir»* deb ko'rsatgan. Shayx Najmiddin Kubroning tasavvuf nazariyasini boyitishga qaratilgan ushbu purma'no fikrlari ayni paytda o'zining ijtimoiy-pedagogik qiymati bilan ham ajralib turadi.

G'ayratli, hikmatli inson ijtimoiy faol, jamiyat rivojiga o'z ulushini qo'sha oladigan shaxs sifatida tan olingan bo'lsa, yalqov, tanbal, parishon insonlar xalq nazaridan chetda qolib ketganligi bilan bugungi kunda ham o'zining tegishli bahosini olmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М.Г.Давлетшин. Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси. —Педагогика ва психология|| (илмий оммабоп серия). Т., Низомий номидаги ТДПУ, 1999/1;
2. Нишанова З.Т. Мустақил ижодий фикрлаш. –Т. Фан.2003;
3. Ш.А.Дустмухаммедова, З.Т.Нишанова, С.Х.Жалилова, Ш.К.Квримова, Ш.Т.Алимбаева "Ёш даврлари ва педагогик психология", Т.: 2013.